

FRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIKASIDAGI KOGNITIV-PRAGMATIK AXBOROT VA ULARNI TUSHUNISH USULLARI HAMDA PRAGMATIK MAZMUNNI IMPLITSIT SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Maxmudjonova Fariza

SamDAQU akademiya litsey

ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Frazeologizm semantikasidagi pragmatik axborot nutq jarayonida yoki matnda muayyan kommunikativ vaziyatda reallashib, lingvistik va ekstralingvistik, tarixiy–madaniy, ijtimoiy-madaniy, etimologik axborotlarni ifodalab, muloqot ishtirokchilarining (muallif, kitobxon so'zlovchi-tinglovchi) pragmatik maqsad va munosabatlarni ifodalovchi lisoniy vositalardir.*

Kalit so'zlar: *konnotativ komponentlar, konnotativ obrazlilik, kommunikativ-pragmatik maqsad, implitsitlik muammosi.*

Sub'ektning ob'ektni baholashi tabiat, odamlar, narsa va hodisalarga nisbatan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlarda, olamni lisoniy idrok qilishdagi milliy, madaniy, etnografik, ijtimoiy mavqe, etnografik xususiyatlarini ifodalovchi lisoniy birliklarda o'z aksini topadi. Ular frazeologik birlik semantikasidagi milliy madaniy konnotativ komponentlar deya yuritilib, til konseptosferasiga kiruvchi tushunchalar sifatida yrganiladi [Korolova 1982]. Frazeologik birliklar semantikasi ifodalanadigan pragmatik axborotda pragmatik maqsad va munosabat, konnotativ obrazlilik, 63 milliy-madaniy yuzga xosliklar boshqa lisoniy birliklarga qaraganda kuchliroq ifodalanadi. Pragmatik axborotdagi ma'noni anglashda frazeologizm tarkibidagi quyidagi makrostrategik koordinatlar aniqlanadi: a) frazeologik birlikni qo'llashdan maqsad(funksiyalar); b) bunda qanday nutqiy harakatlar amalga oshiriladi; v) nutqiy harakatlar orqali kommunikantlar o'rtasida qanday pragmatik munosabatlar yuz beradi (sub'ekt-ob'ekt munosabatlari); g) frazeologik birlik qo'llanilgan matnning pragmatik potentsiali (kitobxonga, tinglovchiga ta'siri), unda muallifning, so'zlovchining kommunikativ intensiyasi. Bunday axborot retseptorning kognitiv mental ongida tahlil qilingach, frazeologizmning haqiqiy ma'nosining idrok qilish jarayoni boshlanadi va tinglovchida (kitobxonda) axborotga nisbatan verbal pragmatik munosabatlar yuz beradi. Idrok qilish manbadagi axborotning implitsitligi va eksplitsitligida, bildirilgan axborotning ongli yoki ongsiz idrok qilinishi bilan bog'liq. Muallifning(so'zlovchining) mental niyati turli variantlardagi mazmunni ifodalash mumkinligi tufayli dastlab, anglash uchun frazeologizmning matndagi denotativ strukturasiga tayaniladi. Bu o'rinda frazeologik ma'no birlikning o'zidan yoki kontekst yordamida idrok qilinadigan

frazeologizmlar farqlanadi. Ma'lumki, frazeologizmlar tarkibidagi pragmatik axborot muloqot jarayoniga, matnga emotsionallik, ifodadorlik, intensivlik beradigan, fikrni estetik ta'sirli ifodalashda turlicha assotsiatsiyalardan foydalanib, obrazli ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Professor A.Mamatov frazeologizm semantikasidagi obrazlilikni tushunishning beshta asosi haqida fikr bildiradi: 64 1.Tilda mavjud bo'lgan erkin so'z birikmasi ifodalovchi ma'no bilan frazeologizm ifodalaydigan ma'nodagi o'xshashlikka asoslangan obrazlilik. Masalan: Etre en colère – g'azablanmoq = Tirer son épée – qilichini yalong'ochlamoq – g'azablanib ketmoq. 2.Frazeologik xarakterga ega bo'lmagan turg'un so'z birikmasiga asoslangan frazeologik obrazlilik: Piler sous le poids du travail –og'ir mehnat tufayli qaddi bukilmoq= avoir l'échine souple – kimningdir oyog'iga tiz cho'kmoq. 3.Ibora yoki lisoniy birlikning so'zma-so'z ma'nosiga asoslanib yasalgan frazeologik obrazlilik: Être en hausse- mansabi ko'tarilmok= faire son chemin ; 4.Ayrim iboralar komponentlarining so'zma-so'z ma'nosiga asoslangan frazeologik obrazlilik: Se mettre sur les bancs= o'qishga kirmoq; Avoir de la barbe au menton= iyagiga saqol bitmoq, haqiqiy erkak (yigit) yoshiga etmoq. 5.Frazeologik birlikning asosiy ma'nosiga asoslanib vujudga kelgan obrazlilik: La saison d'or –oltin kuz = La saison d'or - keksalik, umrning oxiri [Mamatov2015:10-12] . Frazeologik ma'noni aniqlashda tadqiqotchidan quyidagi faoliyat turlarini rejalashtirish talab qilinadi: 1) frazeologik birliklar haqidagi bilimlarni to'liq egallab olish; 2) frazeologik birliklarni matn ichidan ajrata olish; 3) frazeologik ma'noni anglashda nafaqat ularning semantikasini, balki ekspressiv-semantik, pragmatik funksiyalarini ham farqlay olish. Frazeologik ma'noni anglashdagi ko'pchilik xato-kamchiliklar aynan ularni matn ichidan taniy olmaslik bilan bog'liq. Tinglovchi yoki kitobxon ularni ko'pincha erkin so'z birikmalari deb tushunadi va bu ularni oddiy 65 so'zlar vositasida tushunilishiga sabab bo'ladi. Tinglovchi yoki kitobxon ularni muallif(so'zlovchi)ning individual uslubi sifatida ham tushunishi mumkin va bu erkin so'z birikmalarini turg'un so'z birikmasi sifatida tushunilishiga olib keladi. Masalan, fransuz yozuvchisi O.Balzakning "Evgeniya Grande" asaridan olingan quyidagi parchadagi xizmatkor ayolning tashqi qiyofasini tasvirlash uchun qo'llanilgan "une taille de cinq pieds huit pouces" jumlasiga e'tibor beraylik: La grande Nanon ainsi nommée à cause de sa taille de cinq pieds huit pouces appartenait à Grandet depuis trent-cinq ans. Uzunlik birliklarini ifodalovchi so'zlardan tashkil topgan bu iboradagi "pied" - oyoq, "pouce"- barmoq ma'nosinia berishligi bilgan kitobxon yoki suhbatdosh jumlaning "oyoq qo'li chaqqon, baland bo'yli ayol" deya tushunishi mumkin. Aslida esa bu jumla xizmatkor ayolning bo'yi besh futu sakkiz dyum (taxminan 1 metr 75 sm.) ekanligini ifodalayapti xolos. Qo'llanilishdan chiqib ketgan va lug'atlarda belgilanmagan frazeologizmlar, faqat alohida ijtimoiy guruhlariga tanish bo'lgan frazeologizmlar orqali ifodalanadigan pragmatik axborot ko'pincha ularni tushunilishida muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Shuningdek, frazeologik axborot

boshqa til vakillari uchun noma'lum bo'lgan, jamiyating muayyan bir ijtimoiy-madaniy qatlamiga mansub personajlar tilini, xulq-atvorlarini, xarakterlarini, o'zaro munosabatlaridagi deytik belgilarini ham ifodalalashi mumkin. Kitobxon yoki tinglovchini frazeologik birlikdagi pragmatik axborotni xato tushunishga majbur qiluvchi omillardan yana biri – ifodalangan ma'nolarning bir xilligi, ammo bu ma'no boshqa tillarda o'zgacha leksik birliklar orqali ifodalanishidir. Bunday hollarda tarjima tilida mavjud bo'lgan, asliyatga semantik ekvivalent bo'la oladigan ekvivalentlar tanlanadi. Masalan, "rusé comme le renard" = tulkidek ayyor; "dure comme la pierre" = toshdek qattiq va hakozo [Vinogradov 2004:181]. Nutq jarayonida, ayniqsa badiiy asar matnida muallifning individual maqsadlariga ko'ra frazeologizmlar turli deformatsiyalarga, tarkibiy o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu odatda muallif tomonidan personaj tiliga kinoya va yumor, nutq jarayonga tantanavorlik yoki kulgili tus berish maqsadida turlicha pragmatik xarakterdagi ekspressivemotsional, baholovchi vositalarni kiritishni ko'zda tutuvchi stilistik usuldir. [67] Frazeologik birliklar tarkibidagi pragmatik axborotni o'zbek tilida idrok qilish ko'pincha transformatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Transformatsiya (tadbil) – bu tarjimaviy xatolarni bartaraf qilishning, asliyatning leksik, grammatik, stilistik, pragmatik sathidagi ma'no mazmunni tarjima tilida boshqa vositalarni qo'llab tushunish usulidir. Pragmatik axborotni anglashda frazeologizmlarning nutq jarayonidagi funksiyalarini tahlil qila bilish ham muhimdir. Ular badiiy matnda, nutqda quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi: 1) frazeologik birlik sub'ektning ob'ektga nisbatan baholovchi, emotiv, ekspressiv munosabati, nutqiy harakatini ifodalaydi; 2) frazeologik birlik sub'ektning volyuntativ, ya'ni adresatning biror ish harakatga undashini, kommunikativ-pragmatik maqsadini ifodalaydi; 3) frazeologik birlik orqali ifodalanadigan pragmatik ma'no appelyativ funksiyani bajarib, adresatning nutqiy xarkatini bajarishga da'vatini ifodalaydi; 4) frazeologik ma'noning munosabat o'rnatuvchi funksiyasi, ya'ni muayyan nutq vaziyatlarida adresatning (tinglovchi-kitobxonni) diqqatetiborining tortish, pragmatik ta'sir qilish, bu orqali suhbatdoshni javob reaksiyasiga rag'bat uyg'otish vazifasini bajaradi. 5) frazeologik axborot muloqot jarayonida ekspressiv estetik ta'sir kilish funksiyasini ham bajaradi. [Volf 1985:228]. Frazeologik birlikning konnotativ-pragmatik ma'nosi shu o'rinda fikrni ikki planda ifodalash uchun xizmat qiladi: birinchidan olamdagi, atrof-borliqdagi narsa va voqealar ikkilamchi nominsiya qilinadi va ikkinchidan, sub'ektning ob'ektga turlicha baholovchi munosabatlarini ifodalaydi. Frazeologik birlik semantikasidagi implkatsiya, presuppozitsiya, inferensiya, implekatura, allyuziya va h. orqali ifodalanadigan pragmatik [68] ma'noni yoki kognitiv-fon axborotni anglash quyidagi omillarga tayanilgan holda idrok qilinadi: a) frazeologizm qo'llanilgan nutq vaziyati. Bunda muloqot sodir bo'lgan joy, sharoit, vaqt, kommunikantlarning o'zaro munosabatlaridagi ijtimoiy mavqe, (deytik vositalar): b)

kommunikantlar o'rtasidagi suhbat uslubini, xarakterini, mavzusini belgilovchi distansiya, qo'shimcha tushuntirishlar berish zaruratining yo'qligi, avvaldan ma'lum bo'lgan axborotni chetlab o'tish imkoniyatining mavjudligi(implektura); v) muloqot jarayonida suhbatdoshlarning turli sohalarga doir fon bilimlardan foydalanish darajasi (lisoniy tajriba boyligi); g)muloqot jarayonida qo'llanilgan presuppozitsiyali yoki implitsit axborotning suhbatdoshlar tomonidan aniq tushunilish darajasi; d) frazeologik birlik qo'llanish jarayonidagi pragmatik maqsadning aniqligi, muloqot jarayonidagi o'zaro hamkorlik; e) muloqot jarayonida nutq odobi talablariga javob bera oladigan o'zaro xushmuomilalik. Tildagi implitsitlik muammosini va uning badiiy matnni tushunishdagi rolini tadqiq qilish hozirgi zamon pragmatik lingvistikasi, kognitiv tilshunosligi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar uchun eng murakkab va qiziqarli masalalardan biridir. O'zida implitsit axborotni mujassam qilgan, muallif tomonidan verbal ifodalanmagan, qitobxon yoki tinglovchining o'zi anglab etishni ko'zda tutadigan bunday yashirin ma'nolar badiiy asarning emotsional, pragmatik ta'sirini, muallifning badiiy mahoratini belgilashi bugungi kunda sir emas. Badiiy matnda implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari bir asrdan beri nafaqat tilshunoslarni, balki adabiyotshunoslarni, faylasuflarni, ruhshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda. Bu borada ilgari surilgan g'oyalar, konsepsiyalar, yo'nalishlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan xanuzgacha implitsit axborotning mohiyati, uning tinglovchining (o'quvchining) reaksiyasiga bog'liqligi, implitsit axborotni tushunish mexanizmi borasida xilma-xil bahslar davom etib kelayapti. Bu borada lingvistik, psixologik, psixolingvistik, kognitiv va pragmatik nuqtai nazardan amalga oshirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarning 73 o'ziyoq til va nutqdagi implitsitlik muammosi ko'p aspektli va ko'p qirrali ekanligidan dalolat beradi. Tilda va nutqda implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunoslarni, mantiq va faylasuf olimlarni qiziqtirib kelayotgan, o'zining murakkab semantik tarkibi bilan, tilda turlicha vositalar bilan ifodalanishi bilan eng qiziqarli va murakkab muammolardan biridir. Muammoning nazariy asoslari I.V. Arnold (1982, 1991); S.A. Askoldov (1997); A.V. Bondarko (1978, 1984); E.S. Kubryakova (1981, 1991, 1996, 2002); A.A. Maslennikova (1999); YU.M. Skrebnev (1975, 1985, 1990); YU.S. Stepanov (1971, 1997, 2002)va ko'plab boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. Lisoniy vositalar orqali ifodalangan axborotning muayyan bir tilning grammatik, sintaktik qurilishiga bog'liqligi implitsitlikning grammatik aspektni tashkil qilsa, yashirin ifodalangan ma'noning stilistik, pragmatik, kognitiv aspektlarda qiyoslab o'rganilishini uning til va nutq jarayonida qo'llanilishini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida fikrning implitsit ifodalanishi nutqiy aktning aspektual, temporal, modal, personal, lokativ, possessiv aspektlarida tadqiq qilinib kelinmoqda-ki, bu borada hamon bahslar davom etayotganinni, ayniqsa implitsit axborot tushunchasini izohlashda yagona ta'rifning mavjud emasligi kuzatilmoqda. Jumladan,

ayrim olimlar [T.I.Silman (1969), A.A.Brudniy (1976), K.A.Dolinin (1983)] implitsit ma'noni o'rganishda asos sifatida leksik birliklarni tan olsalar, boshqalari uni muloqat akti jarayonida tadqiq qilish fikrini ilgari suradilar.I.V.Arnold (1982), A.V.Bondarko (2006), A.G. Baranov (2007), G.K Xamzina (1997). Bunday xilma-xil yondashuvlarni implitsit ma'noni vujudga keltiruvchi lisoniy vositalar talqinida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, ayrim tilshunoslar implitsit ifodalangan ma'noni podtekst, presuppozitsiya, lakuna, allyuziya, «to'liq ifodalanmagan fikr»[T.I Silman 1969], [V.Y Mirkin 1976], [A.A. Brudniy 1976], [I.R Galperin 1981] deya atasalar, boshqalari ularning barchasini implitsit ifodalangan fikr, yoki implikasiya deya atashni Arnold (1983), Dolinin K.A (1983), A.G. Baranov (2007), Xamzina G.K(1997) ma'qul ko'radilar. Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan atamalarning barchasi fikrning implitsit ifodalanishida barobar ishtirok etishadi va biz ham ularni fikrni implitsit ifodalash vositalari degan talqinga qo'shilamiz. Rus tilshunos olimi A.I. Shevchenko ularni uchta tipga bo'ladi: 1) kontekst, 2) vizual-hissiy vaziyat, 3) tinglovchining (o'quvchining) fikrning verbal komponentlarining sintaktik-semantik xususiyatlariga asoslangan hususiy appersepshon bazasi(fon bilimlari) [Shevchenko 1983:23]. Ikkinchi bir tadqiqotchi A.V. Bondarko yuqoridagi tiplarni yana alohida bo'laklarga bo'lib, implitsit ifodalanuvchi ma'noni aniqlashda 1) fikrning(matnning) lisoniy mazmunini; 2) kontekst orqali ifodalanadigan axborot mazmunini; 3) vaziyat orqali ifodalanadigan axborot mazmunini; 4) muloqot jarayonida [76] qo'llaniladigan fon bilimlarni; 5) diskursning pragmatik elementlarini hisobga olishni taklif qiladi. Taklif qilinayotgan 1 va 2 tip tayanch vositalar kontekst orqali anglashiladigan implitsit ma'noni ko'zda tutadi va ularni alohida tayanch vositalar sifatida ajratishga asos yo'q. Bu o'rinda 4 va 5 tipdagi «tayanch» vositalar ham pragmatik ifodalanadigan fon bilimlarni ifodalashi tufayli, ularni E.N.Shiryaev taklif qilgan 3 tip «tayanch» vositalar safiga qo'shish maqsadga muvofiq. Qolaversa, fikrning implitsit ifodalanishida yuqoridagi tayanch vositalarning barchasi o'zaro bog'liklikda ishtirok etadi va bularning hammasi badiiy matnning implitsit axborotini tashkil qiladi. Bu o'rinda fikrni implitsit ifodalanishida qo'llaniladigan podtekst, allyuziya, presuppozitsiya, implikatura, lakuna kabi atamalarning barchasini implikasiya deya atashni taklif qilgan K.A Dolinin fikriga qo'shilishga to'g'ri keladi [Dolinin 1983: 37]. Demak, imlikatsiya birinchi navbatda podtekst(tagma'no) orqali anglashiladi va gapiruvchi tomonidan qo'llanilgan presuppozitsiyaga gapiruvchi va tinglovchilarning muloqot vaziyatlariga, fon bilimlariga asoslanadi. Har qanday fikr kommunikativ maqsadni ifodalashda muayyan presuppozitsiyalarga asoslanib, to'liqsiz ifodalanishi va bunday to'liqsizlik turli nutq vaziyatlarida turlicha bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan implitsit ifodalanadigan ma'noni va axborotni tushunish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim bo'ladi: 1)fikrning to'liq tushunish uchun jumla ifodalayotgan axborotdan tashqarida, noverbal ifodalangan ichki to'liqsiz ma'noni anglashga yo'naltirilgan

mental faoliyat; 2) gapiruvchi tomonidan strategik usul sifatida amalga oshiriladigan, tinglovchining(o'quvchining) bu jumla ichidagi to'liqsiz ma'noni o'zi anglab etishiga yo'naltiriladigan mental faoliyati .[77] Birinchi tip implitsitlik ko'pincha axborotning verballashgan va verballashmagan zvenolaridan ma'lum bir xulosaga kelib, mantiqiy fikrlashni talab qiladigan presuppozitsiyaga asoslanadi. Quyidagi misolda ob'ektiv sabab va semantik-sintaktik bog'lanish orqali mantiqiy prpesuppozitsiya qilinadigan va inkor qilingan suhbatdosh fikri, implitsit ifodalangan axborotni ko'rishimiz mumkin: - Ce soir je t'invite aller au cinema-Bugun kechkurin men seni kinoga taklif qilaman. – Ma mère est malade -Onam kasal. Ushbu misolda birinchi suhbatdosh uzatayotgan axborot - ikkinchi suhbatdosh tomonidan tasdiq formada kelayotgan, birinchi suhbatdosh gapiga sintaktik-semantik jihatdan bog'langan axborot orqali inkor ma'noni ifodalayapti. Birinchi suhbatdosh javobdan mantiqiy xulosa chiqarib, o'z taklifi inkor qilinayotganligini anglab olishi lozim. Ya'ni, javob axborotdagi verballashmagan inkor (to'liqsiz axborot) mantiqiy presuppozitsiya orqali to'ldirilayapti. Bunday implitsitlik matn orqali ifodalanganida esa, tinglovchi (o'quvchi) kontekst orqali ifodalangan implitsit ifodalangan axborotni: ya'ni birinchi suhbatdosh - yigit, ikkinchisi- qiz ekanligini, ular anchadan beri qadrdon ekanligini ham presuppozitsiya orqali anglab oladi.. Badiiy matnda ifodalanadigan bunday implitsit axborot tilshunoslikda gap strukturasidagi implitsit ifodalangan axborotni sintaktik jihatdan tadqiq qilishga yo'naltiriladi. Bu o'rinda matn hosil qilishda presuppozitsiyaga asoslangan implitsit propozitsiyali gap tiplari va implitsit prezumsiyaga asoslangan gap tiplari aniqlanadi. Implitsitlikni lingvokognitiv nuqtai nazardan o'rganilishida birbirlarini to'ldiruvchi, gohida bir-birlari bilan sinonim ravishda qo'llaniladigan, masalan, implitsit bilim, implitsit ma'no, implitsit mazmun singari qator atamalarga duch kelamiz. Implitsit bilim deyilganida, odatda ko'zda tutilgan, ammo lisoniy vositalar orqali ifodalanmangan ma'no-mazmunni anglab olishga doir aqliy –mantiqiy operatsiyalar tushuniladi. Bu atama tilshunoslikka L.V.Bondarko tomonidan kiritilgan bo'lib, lisoniy ma'noning interpretativ komponentlari ko'zda tutiladi. Bu komponent grammatik kategoriyalar: aspektuallik, temporallik, modallik, personallik, lokativlik, posessivlik kabi kategoriyalar orqali voqelanadi [Bondarko 2006]. Badiiy matnda implitsit ifodalanadigan axborot podtekst –tagma'no tushunchasi bilan ham bog'liq. Muhim ma'noviy kategoriyalar hisoblanmish podtekst va implikasiya tushunchalarining umumiy tomonlari bo'lsa-da, ular o'rtasida muayyan darajada farqlar ham mavjud. Odatda podtekst –tagma'no deyilganda kishilarga o'rganish bo'lib qolgan, kundalik turmushda suhbat jarayonida qo'llaniladigan yashirin, hamma tushunavermaydigan ma'no nazarda tutiladi. Implitsitlik atamasi esa terminologik xarakterga ega bo'lib u nutqning belgili lisoniy va psixologik aspektlarini nazarda tutadi. Podtekst deyilganida, ko'pincha muloqot jarayonida intuitiv anglab 80 olinadigan, noverbal ifodalangan fikr ham nazarda tutiladi. Ana shu nuqtai

nazardan har ikkala atama sinonimik ravshda qo'llanilib kelinmoqda. Badiiy matndagi implitsit ifodalanadigan fikr rus tilshunos olimlari Dolinin K.A (1983), Bagdasaryan (1983), Nikitin (1988), Sitdikova (1985), Molchanova (1988), Bezugla (2007), Ermakova (2007, 2008, 2009)larning tadqiqotlarida atroflicha o'rganilgan. Qator tadqiqotlarda implitsitlik va podtekstning to'liqsiz sinonimlari sifatida «yashirin ma'no» Popov (1983), Maslennikova (1999), Oblachko (2005), «ma'no ko'ppnliligi» [Fedorov 1981], «matniy implikatsiya» [Kuxarenko 1974], [Arnold 1982, 1983, 1990] atamalari qo'llanilishini ham kuzatamiz. Implitsitlik muloqot jarayonida nutq vaziyati va kontekst orqali aniqlanadi. Bu o'rinda nutqiy implitsit ma'noning lisoniy vositalar orqali ifodalangan implitsit mazmundan farqlash muhimdir. Chunki nutqiy implitsit ma'noni hosil qilishda turli-tuman komponentlar: situativ kontekst, avvaldan o'zlashtirilgan ensiklopedik, pragmatik, kommunikativ bilim va malakalar ham ishtirok etadi. Implitsit mazmunni idrok qilish jarayonida qo'l keladigan kognitiv bilimlar shunday qilib nutqiy fikrni presuppozitsiyalar orqali kontekst yordamida idrok qilinishiga olib keladi. Nutq jarayoni kognitiv aspektida tadqiq qilingan ishlar tahlilidan quyidagi ikki xulosaga kelish mumkin: birinchidan, kognitiv bilimlar inson ongida muayyan ma'no anglatuvchi strukturalar shaklida saqlanadi. Shunday qilib, inson ongidagi kognitiv bilimlar nutq jarayonida tizimli xarakterga ega bo'lgan pragma- [81] kommunikativ va baholovchi pragmatik implitsit mazmunni vujudga kelishiga xizmat qiladi Badiiy matnda yoki muloqot jarayonida qo'llanilgan pragmatik axborot va pretsedentlik fenomeni muayyan ijtimoiy muhitida yashagan va yashayotgan barcha kishilar uchun doimo tushunarli bo'ladi va uni nutq jarayonida, diskursda qo'llanishi boshqa til vakillari uchun doimo tushunarli b'ylavermaydi [Babenko 2004]. P.Merimening Tamango novellasidan olingan quyidagi misolda pragmatik axborot joy nomi orqali implikatsiya qilinmoqda. Ikkinchi til vakili uchun bunday joy nomi hech qanday pragmatik axborot uzata olmasligi sababli u matn ostida yoki ichida izohlanadi. Au combat de Trafalgar, il eut la main gauche fracassée par un éclat de bois ; il fut amputé. Trafalgar jangida kema machtasining zambarak o'qidan qulagan yog'ochi uning chap qo'l panjalarini majaqlab yubordi. Uning panjalarini kesishga to'g'ri keldi. (Au combat de Trafalgar - Fransuzlar dengiz floti inglizlar tomonidan tor-mor qilingan denigiz qirg'og'idagi joy nomi) Bu o'rinda pretsedent otlar orqali implitsit ifodalangan fikr va axborotning quyidagi umumiy belgilarini keltirish mumkin: - pretsedent otlar orqali ifodalangan implitsitlik, ya'ni noverbal ifodalanadigan axborot milliy-lisoniy jamiyatning barcha vakllari tomonidan yaxshi tushunilgani holda tarjimada tilida yoki boshqa milliy madaniyat vakillari uchun q'yshimcha izoh berishni talab qiladi; [83] pretsedentlik orqali ifodalangan implitsit axborot muayyan millat vakillarining milliy-madaniy ongida shakllangan kognitiv bilimlarga asoslanadi. Bunda shu millatga mansub o'ziga xoslik va umummilliy universal kategoriyalar o'z ifodasini topadi; -muloqotda yoki diskursda qo'llanilgan pretsedent ot bilan ifodalangan implitsit

ifodalangan axborot u yoki bu milliy-lisoniy, madaniy jamiyat rivojlanishi jarayonida doimo yangilanib turishi mumkin [Gudkov 1997, 106-117]. Rus pragmalingvisti M.L.Makarov matnni umumiy tuzilishini o'rganishda noverbal ifodalanadigan implitsit axborotni presuppozitsiya propozitsiya, referensiya, eksplikatura, inferensiya, implikatura, relevantlik kabi noverbal vositalar orqli talqin qilishni taklif qiladi [Makarov 2003, 119-137].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2018 yil 6 aprel. - №15 (4465).
2. Mirziyoev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir mavzusida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2019 yil, 4-avgust.
3. Виноградов, В. С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. М.: Изд-во МГУ, 1978.- С. 174 с.
4. Urdavayevich, T. S. (2024). IMPORTANCE OF TEACHING THE LEGACY OF BABUR TO THE YOUTH: CULTURAL, HISTORICAL, AND EDUCATIONAL PERSPECTIVES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 589-592.
5. Аманбаева, А., & Наршабаева, А. (2024). Using CLIL approach in ESP classes. *Преимущества и проблемы использования достижений отечественной и мировой науки и технологии в сфере иноязычного образования*, 1(1), 286-288.
6. Тухсонова, М., & Наршабаева, А. (2024). Benefits of computer-based technology in English classes. *Преимущества и проблемы использования достижений отечественной и мировой науки и технологии в сфере иноязычного образования*, 1(1), 255-256.
7. Yumutbaevna, N. A. (2022, August). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN STUDENTS. In *E Conference Zone* (pp. 85-93).
8. Журакулов, Р. Д., & Журакулий, Г. Р. (2024, October). Клишированные образования в текстах сказки. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 77-80).
9. Sharifboyeva, R., & Juraquliy, G. R. (2024, April). ROLE OF PHONETICS IN LEARNING ENGLISH. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 228-231).

10. Xushbaqova, M. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA USLUBIY YONDASHUV. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 263-265).

11. Jo'raqulov, R., & Juraquliy, G. (2024, April). ERTAKLARNI TAHLIL QILISHNING AYRIM JIHATLARI. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 453-455).

12. Журакулов, Р. Д., & Журакулий, Г. (2023). СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ПОЛЯ ФРАЗЕОЛОГИИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(11), 80-82.

13. Alimov, S. K. (2024). THE ROLE OF NATIONAL IDEOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 2(6), 59-62.

14. Botir o'g'li, R. S. (2024). CRIMINAL LIABILITY FOR FRAUDULENT ENTREPRENEURSHIP. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(12), 94-97.

15. Виноградов, В.С. Перевод. Общие и лексические вопросы. М., 2004. -240 с.

16. Макаров М.Л. Коммуникативная структура текста. -Тверь, 1990.- 130 с.

17. Маров В.Н. Прагматико-стилистическая характеристика речи партнеров коммуникации. // Сборник науч. трудов: Прагматика и стилистика текста. Алма-Ата: КазГУ, 1988. - 173 с.

18. Наер, В.Л. Прагматика текста и ее составляющие // Сб. науч. трудов. Вып. 245. -М., 1985.

19. Нахимова, Е. А. Прецедентные имена в массовой коммуникации :монография. -ГОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т» ; Ин-т социального образования. Екатеринбург, 2007.-207 с.